



MAKTAB VA UNIVERSITET O'QUV DASTURIDA
O'ZLASHTIRILGAN SO'ZLARNI O'RGA TISHDAGI YONDASHUVLAR
VA O'ZLASHTIRILGAN SO'ZLARNI O'QITISH JARAYONIDA LEKSIK
MASHQLAR VA LUG'ATLARDAN FOYDALANISH

Islomova Zilola Komiljon qizi

Zilolaislomova03@gmail.com

0009-0008-5994-7211

Annotatsiya: Maqola o'zbek tilida o'zlashtirilgan so'zlarni maktab va universitet ta'lif tizimlarida o'rgatishning metodik asoslariga bag'ishlangan. Unda o'zlashtirilgan so'zlarni o'qitishning xalqaro miqyosdagi strategiyalari, ularning kontekstual, etimologik va madaniy integratsiya asosidagi usullari tahlil qilinadi. Maktabda kontekstual va interaktiv metodlar, universitetda esa tahliliy va tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuvlarning samaradorligi ko'rib chiqiladi. O'zlashtirilgan so'zlarni o'rgatishda leksik mashqlar, lug'atlardan foydalanish, so'zlarning kelib chiqishi va madaniy ahamiyatini muhokama qilish kabi usullar orqali o'quvchilarning til kompetensiyasi, madaniy ong va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Maqola o'zlashtirilgan so'zlarni o'qitishning izchil va tizimli integratsiyasi orqali o'quvchilarning lug'at boyligi va til madaniyatini yuksaltirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Annotation: The article is dedicated to the methodological foundations of teaching borrowed words in the Uzbek language within school and university education systems. It analyses international strategies for teaching borrowed words, focusing on contextual, etymological, and culturally integrative methods. The effectiveness of contextual and interactive methods in schools and analytical, research-oriented approaches in universities is explored. The article highlights methods such as lexical exercises, dictionary use, and discussions on the origins and cultural significance of borrowed words to enhance students' linguistic competence, cultural awareness, and critical thinking skills. It emphasizes the potential of consistent and



systematic integration of borrowed word instruction to enrich students' vocabulary and elevate their language culture.

Аннотация: Статья посвящена методическим основам преподавания заимствованных слов в узбекском языке в рамках школьной и университетской систем образования. В ней анализируются международные стратегии обучения заимствованным словам с акцентом на контекстуальные, этимологические и культурно-интегративные методы. Исследуется эффективность контекстуальных и интерактивных методов в школах, а также аналитических и исследовательских подходов в университетах. В статье подчеркивается значение таких методов, как лексические упражнения, использование словарей и обсуждение происхождения и культурной значимости заимствованных слов для повышения языковой компетенции, культурного сознания и навыков критического мышления студентов. Особое внимание уделяется потенциалу последовательной и системной интеграции обучения заимствованным словам для обогащения словарного запаса студентов и повышения их языковой культуры.

Kalit so‘zlar: O‘zlashtirilgan so‘zlar, o‘zbek tili, ta’lim metodikasi, kontekstual o‘qitish, etimologik tahlil, madaniy integratsiya, leksik mashqlar, lug‘at boyligi, til kompetensiyasi, interaktiv usullar.

Keywords: Borrowed words, Uzbek language, teaching methodology, contextual learning, etymological analysis, cultural integration, lexical exercises, vocabulary enrichment, linguistic competence, interactive methods.

Devid Graddol o‘zining 2006- yil, taxminan o‘n yilcha oldin nashr etilgan bir kichik kitobda hozirda boshqa tillarga ko‘plab so‘zlari o‘zlashtirilayotgan ingliz tilini o‘qitish, uni o‘rganish va qo‘llash bilan bog‘liq quyidagi tendensiyalar va ehtimoliy ssenariylarni keltirib o‘tgan. Unga ko‘ra dunyo bo‘ylab ingliz tilini o‘rganayotgan insonlar soni keskin oshib, taxminan 2020-yilda ikki milliardga yetishi kutilayotgani, ingliz tilini o‘rganayotganlarning yoshi va ehtiyojlari o‘zgarib, murakkablashib borishi, ingliz tili ko‘plab mamlakatlarda umumiy ta’lim dasturining bir qismiga



aylanganishi sababli, ona tilisi ingliz tili bo‘lganlar davlatlar tilining iqtisodiy ustunligi pasaygani sari ikki va ko‘p tillilik odatiy holatga aylanib, monolingval (faqat bitta til biluvchi) so‘zlashuvchilar esa turli qiyin vaziyatlarga uchrashi mumkinligi haqida ko‘plab ma’lumotlar misollar orqali keltirib o‘tilgan. Shu asosda aytish mumkinki, davr talabi va turli omillar natijasida o‘zbek tiliga kirib kelib o‘zlashtirilayotgan so‘zlar ham tilning muhim bir qismi hisoblanadi.

Onlayn suhbatlar mumkin, ammo hozirgi texnik cheklovlar – video va audio sifatining pastligi, shuningdek, natijaning haqiqiy ahamiyati – ko‘pchilik o‘rganayotganlar uchun yaxshilanish imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, onlayn tajribaga ega bo‘lmagan va texnologik cheklovlarni yengib o‘tish uchun nisbatan yuqori til darajasiga ega bo‘lmagan o‘rganuvchilar uchun bu yanada qiyin bo‘lishi mumkin. Turli tadqiqotlar o‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘quvchi va talabalarga o‘qitishda o‘zlashtirilgan so‘zlarni aniqlash, ishlatalish o‘rni, holati va ularning asl kelib chiqish manbalarini talabalar bilan birgalikda muhokama qilish kabi usullar sezilarli darajada samarali bo‘lishi mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Bu jarayonda o‘zlashtirilgan so‘zlar o‘zbek tili bilan qiyoslanib, madaniyatlar aro muloqot va aloqani yanada mustahkamlash uchun o‘zining katta hissasini qo‘sadi. O‘qitish faoliyatini yanada samarali qilishda turli multimedia materiallardan foydalanib, o‘zlashtirilgan so‘zlarni ko‘proq amaliyotda ko‘rish va qo‘llash mumkin va ushbu turdagи metodlar ham davlatlar aro bir biridan farq qiladi. O‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘gatishda ularning tarixiy va lingistik jihatlariga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘zlashtirilgan so‘zlar asrlar davomida til evolyutsiyasining bir qismi bo‘lib, madaniy va iqtisodiy aloqalarni o‘zida aks ettiradi. Masalan, ingliz tiliga 300 dan ortiq tillardan turli so‘zlar kirib kelgan bo‘lib, ular orasida fransuz, lotin va yunon tillarining ta’siri boshqalarga nisbatan ancha yuqoriroq. Xuddi shunday, yapon tiliga ham modernizatsiya va globalizatsiya tufayli ko‘p tillardan, ayniqsa ingliz tilidan, katta miqdorda so‘lar kirib kelgan. 1991 yilda nashr etilgan lug‘atdagi ma’lumlarga ko‘ra o‘sha davrgacha 33 500 ta boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ro‘yxatga olingan

O‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘qitish usullari.



O'zlashtirilgan so'zlarni o'qitishning xalqaro miqyosda juda ko'p usullari mavjud bo'lib, ular bir nechta asosiy strategiya hamda uslublarga bo'linadi va har biri turli ilmiy tadqiqotlar, amaliyotlari bilan tastiqlanib o'qitish jarayonida asosli manbaalar bilan qo'llab quvvatlanadi. Quyida bir nechta usullar misollar yordamida izohlab, yoritilib o'tiladi.

O'zlashtirilgan so'zlarni nutqada aniqlash va ularni saralash.

O'qituvchilar o'zlashtirilgan so'zlarni o'quvchi va talabalarga o'rgatish jarayonida ularning tilshunoslik bilish bo'yicha darajalariga mos keladigan, imkonи bo'lsa o'zbek tilda allaqachon ekvivalenti bo'lgan, yoki lug'at tarkibiga kiritilgan o'zlashma so'zlarni tanlashi va ular asosida dars jarayonini tashkil etishi lozim.

Progress (lat. "progressus" – oldinga harakatlanish) Rivojlanishning quyi darajadan yuqoriga qarab yo'nalishi; rivojlanishning yanada yuqoriq bosqichiga o'tishi; yaxshi tomonga o'zgarish. Texnika progressi. *Umuman, men fanni "ilg'or, taraqqiyot, progress" degan so'zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. (Gazetadan.)*¹

Progressiv-Progressga, rivojlanishga oid, taraqqiyotga olib boruvchi, unga yordam beruvchi; ilg'or, taraqqiyparvar. "Progressiv yozuvchi. Progressiv insoniyat. Progressiv harakat". *Bir vaqtlar kamtar bir muallim, progressiv intellektual, bir necha yoshlarni ziyofatga taklif etgan ekan. (Oybek, "Nur qidirib.")* Muntazam ravishda o'sib boradigan, tobora rivojlanadigan. *Islohotlarning ikkinchi bosqichidagi vazifa... chuqur progressiv siljishlarga erishishdir. (Gazetadan.)*²

O'zlashtirilgan so'zlarni ma'lum bir kontekstda taqdim etish.

O'zlashtirilgan so'zlarni o'rghanish jarayoni o'quvchilarga yanda aniq va tushunarli bo'lishi uchun ularni turli kontekstlarda, masalan, ma'lum mavzuga doir matnlar, dialoglar yoki real hayot duch kelish mumkin bo'lgan qiziqarli hodisalar orqali taqdim etish samarali va qiziqarli usul hisoblanadi.

Masalan: *Ekskursiya* (lot. "excursion" – biror joyga safar, sayohat) Muzey, ko'rgazma, shahar va shu kabi joylarga jamoaviy tashrif, shunday maqsaddagi safar. "Ekskursiyaga chiqmoq. Ekskursiya avtobusi". *Muallimlari boshchiligidida*

¹ O'zb.I.L."P".311-bet

² O'zb.I.L."P".311-bet



geografiyadan ekskursiyaga kelishgan edi. (S. Karomatov, “Oltin Qum.”) Ekskursiya vaqtida u o‘zini juda erkin tutib, suhabatni tarixiy voqealarga bog‘lab, qiziqarli o‘tkazdi. (Gazetadan.)³ -sayohat kontekstida;

Server (ingl. “server”) tex. Ma’lum dasturlar to‘plami bilan ta’minlangan va umumkompyuter tarmog‘ida dispecherlik, taqsimlash va boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi kompyuter yoki kompyuterlar guruhi⁴ kabi texnik konteksda o‘zlashtirilgan so‘lar o‘qitish jarayonida qo‘llaniladi. Bu usul o‘zlashtirilgan so‘larni tez eslab qolish hamda nutqda foydalanish doirasini yaxshilashga yordam beradi va samaradorligi tilshunos olimlar tomonidan o‘tkazilgan turli tadqiqotlar orqali isbotlangan.

O‘zlashtirilgan so‘zlar etimologiyasi va kelib chiqish manbalarini tahlil qilish.

O‘zlashtirilgan so‘zlarning etimologiyasini aniqlash va uni tahlillar asosida chuqur o‘rgatish o‘quvchilarga ularning ma’nolari, madaniy ahamiyati kabi muhim jihatlarini tushunishga yordam beradi.

Jasmin-bu so‘z “O‘TIL”da (II, 488) arabcha deb belgilangan, biroq “ARS”da mustaqil ravishda “yasmin(un)” va “yasmin(un)” shakllarida (915, 918-betlar) keltirilgan. Ushbu shakllarning mavjudligi bu so‘zning aslida arabcha emasligini ko‘rsatadi. “Ushakov lug‘ati” da (I, 848) bu so‘z “forscha” deb qayd etilgan. “TjRS”da esa “jasmin” so‘zi mavjud emas, balki uning o‘rniga “yosuman” shakli berilgan (146-bet). “PRS”da (601-bet) “yasaman” shakli keltirilib, u “yas” so‘ziga bog‘langan. PRS bo‘yicha, bu so‘zning “yas” va “yasaman” shakllari mavjud. Demak, bu so‘z “eroniy” kelib chiqishga ega bo‘lib, uning asl shakli “yasaman”. Tojik tilida bu so‘z tovush o‘zgarishiga uchrab, “yasuman (yosuman)” shakliga o‘tgan va shu holatda o‘zbek tiliga o‘zlashgan. “PRS” asosida bu so‘z “yas” ildiziga “-man” qo‘srimchasi qo‘silishi orqali hosil qilingan deb taxmin qilish mumkin. “Yas” so‘zi dastlab o‘tkir “xushbo‘y hid” ma’nosini anglatgan, “-man” qismi esa “-mand” shakliga ega bo‘lib, keyinchalik uning oxiridagi “a” tovushi talaffuzdan tushib qolgan bo‘lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, “O‘TIL”ga “Yasmin” so‘zini kiritmaslik lozim edi, chunki bu

³ O‘zb.I.L.”E”.26-bet

⁴ O‘zb.I.L.”S”.483-bet



so‘z “tojikcha yosuman” so‘zining “Ruscha” talaffuz shaklidir. O‘TILga “yosuman” so‘zining o‘zi kiritilishi kifoya. Ushbu so‘z “xushbo‘y, oq to‘pgulli manzarali buta” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, I, 263)⁵.

Rahnamo-bu so‘z tojikcha ot bo‘lib, “rohnamo” shakliga ega (TjRS, 328). O‘zbek tiliga birinchi bo‘g‘indagi “o (a)” tovushi “a” tovushiga o‘zgargan holda “rahnamo” shaklida o‘zlashgan (TjRS, 323). Leksik jihatdan so‘z “yo‘l” ma’nosini anglatuvchi “roh” (TjRS, 328) otiga “ko‘rsat” ma’nosini ifodalovchi “namudan” fe’lidan olingan “namo” hozirgi zamon asosining qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan (TjRS, 257). Natijada, “yo‘lboshchi” ma’nosini bildiruvchi ot paydo bo‘lgan (O‘TIL, I, 618). Bu so‘zdan o‘zbek tilida “rahnamolik” mavhum oti hosil qilingan bo‘lib, “rahnamolik qil-“ fe’l tarkibida ishlatiladi⁶.

Ushbu usul yosh avladni tarixiyini qadrlash uni chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘zbek tili bilan qiyoslash.

O‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘zbek tili bilan qiyoslash usuli tilshunoslikda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu jarayon orqali jahon tillari va ona tilimiz o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, turli o‘zgarishlar: so‘z boyligi, talaffuz, fonetik, fonologik, sintaklik, morfologik yozuvdagi o‘zgarishlarni yanada aniqroq tahlil qilsh va chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. O‘zlashtirilgan so‘zlearning o‘zbek tiliga qanday qilib kirib kelganligi, qanday o‘zgarishlarga uchrab, hozirda nutqda qay holatda ishlatilinayotganini atroflicha tahlil qilish bu usulning asosidir.

Talaffuz va yozuvdagi o‘zgarishlar.

O‘zlashtirilgan so‘zlar o‘zbek tiliga kirib kelganda tilimizda ayrim harflar yoki tovushlar boshqa tillarda mavjud bo‘lmaganligi yoki aksincha boshqa tillardagi ba’zi harf va tovushlar o‘zbek tilida mavjud bo‘lmaganligi sababli talaffuz va yozuv jihatdan turli o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

⁵ Shavkat rahmatullayev, “O‘zbek tilining etimologik lug’ati”, II bob, “Universitet” nashri, 2009. 124-125-betlar

⁶ Shavkat rahmatullayev, “O‘zbek tilining etimologik lug’ati”, III bob, “Universitet” nashri, 2009. 200-bet



Taksi -(fr. “taxi”) Kirakash yengil avtomobil yoki yuk avtomobili. “Yengil taksi”. Yuk tashuvchi taksi. Uyga taksida qaytmoq. *Bino yoniga taksi kelib to‘xtadi, ichidan Iroda tushdi...* (F. Musajonov, “Himmat”).⁷

Fundament (lot. fundamentum – asos, poydevor) biror bino devori, inshoot, dastgoh va shu kabilarning pastki, mustahkam qismi; poydevor. *Uch yil ilgari qurila boshlangan binolarning hali fundamenti ham bitmabdi.* (“Mushtum”) Ko‘chma ma’noda – biror narsaning asosi; ishonchli tayanchi, bazasi. *Yoshlik – fundament. Uning g‘ishtini to‘g‘ri qo‘yish kerak.* (Mirmuhsin, “Ajrim”)⁸

Ma’nodagi o‘zgarishlari.

So‘zlar boshqa tillarga o‘zlashtirilganda nafaqat shakl, ba’zan ma’no jihatdan ham turli o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zgarishlar o‘zlashayotgan tilda so‘zlashuvchilar tomonidan so‘zning noto‘g‘ri tushunilishi, yangi madaniy kontekst va boshqa til me’yorlariga moslashtirilish kabi turli ta’sirlar natijasida yuzaga keladi. Ma’no o‘zgarishlari quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- Ma’no torayishi – asliyatda ko‘p ma’noli bo‘lgan o‘zlashma so‘zning yangi tilda faqat bitta ma’noda qo‘llanilishi.
- Ma’no engayishi - asliyatda bir ma’noli bo‘lgan o‘zlashma so‘zning, yangi tilda qo‘shimcha ma’nolari hosil bo‘lishi.
- Ma’no o‘zgarishi (semantik) - o‘zlashma so‘zning yangi tilda boshqa bor ma’noni anglatishi.

Tarix -bu arabcha so‘z tarix(un) shakliga ega (ARS, 30); o‘zbek tiliga cho‘ziq ā unlisini a unlisiga, cho‘ziq ī unlisini i unlisiga almashtirib qabul qilingan: tārīx → tarix; arraxa fe’lining “o‘t-mishni yozdi” ma’nosini bilan (ARS, 30) hosil qilingan I bob masdari bo‘lib (ARS, 30), arab tilida “sana”, “solnoma”, “o‘tmish” ma’nolarini anglatadi (ARS, 30); o‘zbek tilida asosan “ijtimoiy taraqqiyotning avvalgi davri” ma’nosini angl-atish uchun ishlatiladi (O‘TIL, II, 126). Bu so‘zdan o‘zbek tilida tarixchi oti yasalgan⁹. Bu so‘ ma’no kengayishining natijasidir.

⁷ O‘zb.I.L.”T”.646-bet

⁸ O‘zb.I.L.”F”.366-bet

⁹ Shavkat rahmatullayev, “O‘zbek tilining etimologik lug’ati”, II bob, “Universitet” nashri, 2009. 422-bet



Grammatik jihatdan o‘zgarishlar.

Boshqa tillardan o‘zbek tiliga so‘z o‘zlashtirilib, nutq jarayonida qo’llanilayotganda, o‘zbek tilining grammatik qoidalariga moslashtiriladi.

Muvaffaqiyat- bu arabcha so‘z “muvaffaq” so‘zidan (f.) “-iyyat” (un) qo‘sishimchasi bilan yasalgan mavhum ot bo‘lib (ATG, 370), “biror ishda erishilgan ijobiy, yaxshi natija” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, I, 474). Bu so‘zdan o‘zbek tilida “muvaffaqiyatli”, “muvaffaqiyatsiz” sifatlari, keyingi sifatdan esa “muvaffaqiyatsizlik” mavhum oti yasalgan.¹⁰ *Bu muvaffaqiyatlarimning eng asosiy sababchisi onamdir.* Ushbu misolda arab tilidan o‘zlashtirilgan *muvaffaqiyat* so‘zi ko‘plik, egalik va kelishik qo‘sishchalarini olib, grammatik jihatdan o‘zgargan.

O‘zlashtirilgan so‘zlarni faol amaliyotda qo‘llash

Bu jarayonda o‘quvchilar o‘zlashtirilgan so‘zlarni qatnashtirib dialoglar olib borish yoki ular ishtirokida turli xil kontekstda gaplar tuzish orqali ularga o‘zlashtirilgan so‘zlarni nutqda faol ishlatishga zamin yaratilib beriladi.

O‘zlashtirilgan so‘zlar bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy integratsiyani muhokama qilish.

O‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘qitishda ular mansub bo‘lgan til va o‘zbek tili o‘rtasidagi madaniy almashinuvlarni muhokama qilish juda muhimdir. Ushbu usul ayni shu jihatni amaliyotda qo‘llash va mustahkamlash imkonini beradi.

O‘rganilgan o‘zlashtirilgan so‘zlarni mustahkamlash.

O‘zlashtirilgan so‘zlarni yuqoridaq usullar asosida o‘rganib bo‘lgach uni amaliyotda ko‘proq foydalanib, turli nutq uslublarida qo‘llash orqali o‘quvchilar ularni yanada yaxshiroq va mustahkamroq eslab qolishadi va tushunishadi.

O‘zlashtirilgan so‘zlarni maktab yoki universitetlarda o‘qitish usullari kontekstli, etimologik va madaniy integratsiya kabi asoslardan tarkib topib, ular ma’lum darajada milliy ta’lim me’yorlariga moslashtiriladi. Yo‘nalishlar o‘zaro farq qilsa-da, maqsad bitta o‘zlashtirilgan so‘zlarni samarali yo‘l bilan o‘rgatishdir. O‘zlashtirilgan so‘zlarni chuqur o‘rganish nafaqat o‘quvchining lug‘at boyligini

¹⁰ Shavkat rahmatullayev, “O‘zbek tilining etimologik lug’ati”, II bob, “Universitet” nashri, 2009. 280-bet



oshiradi, balki ularning xalqaro tilshunoslik va davlatlar aro madaniy aloqalar to‘g‘risidagi dunyo qarashlarini kengaytiradi.

O‘zlashtirilgan so‘zlar bugungi globallashib borayotgan hayotimizning bir qismi hisoblanadi. Ular ko‘pincha texnologiya, ilm-fan, moda, media sohalarida faol ishlatalib, asta-sekin kundalik so‘zlar qatoriga kirmoqda. O‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘rgatish jarayonini leksik mashqlar va lug‘atlardan foydalangan holda tashkil etish:

- O‘zlashtirilgan so‘zlar va real voqeliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash
- O‘quvchining leksik til boylikni oshirish
- Nutqdagi faollik va uning ifodaviyligini kuchaytirish kabi muhim jihatlarni mukammal holatda mustahkamlash uchun juda zarurdir.

Leksik mashq va lug‘atlar orqali o‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘rganish o‘quvchilarga so‘zning mazmunini yaxshiroq anglash ularni turli kontextlarda qo‘llash, turli sohalarda o‘z fikrini ifoda qilish uchun zamonaviy va ommabop bo‘lgan so‘z boyligiga ega bo‘lish imkonini beradi. Ushbu jarayonda o‘zlashtirilgan so‘zlarning semantik aniqligi, fonetik shakli, qanday kontekstda qo‘llanilayotgani va tillar aro tafovuti kabi muhim jihatlariga qattiq e’tibor berilishi kerak. Chunki o‘zlashtirilgan so‘zlardagi ma’noviy chalkashliklar, orfografik va fonetik tafovutlar, ona tili bilan solishtirgandagi talaffuz bilan bog‘liq farqlar ba’zan o‘quvchilarda bu so‘zlarni o‘zlashtirma so‘z emas, oddiy o‘zbekcha deb qabul qilishilariga olib keladi. Quyidan bir nechta leksik mashqlar va ularning o‘tkazilish tartibi keltirib o‘tiladi.

1. “O‘zlashtirilgan so‘zlar lotereyasi”

Ushbu leksik mashqning maqsadi o‘zlashtirilgan so‘zlarni kontekstda tanib olish va qayta eshitish orqali yanda kegnroq chunish hamda mustahkamlashga qaratilgan.

Jarayonni amalga oshirish uchun 20 ta keng qo‘llaniladigan yoki yaqinda kirib kelgan o‘zlashtirilgan so‘zlar yozilgan kartochkalar tayyorlanadi va har bir o‘quvchiga radom shaklda 5 tadan kartochka beriladi.

O‘yin paytida o‘qituvchi har bir o‘zlashtirilgan so‘z uchun o‘sha so‘z qatnashgan bir gap o‘qiydi va u o‘qibtugatishi bilan shu so‘z yozilgan to‘g‘ri kartani



ko'rsatgan o'quvchi 1 ball oladi. Barcha gaplar o'qib bo'lingach, eng ko'p ball to'plagan o'quvchi o'yin g'olib deb e'lon qilinadi.

2. So'lar bilan fantamima

Bu o'yindan maqsad o'zlashtirilgan so'z ma'nosini tushunish va obrazli ifodalash shu bilan bir qatordan o'quvchinining jodiy fikrlashni rivojlantirishdir.

3. Bu so'zni kim ixtiro qilgan?

Ushbu leksik mashq orqali o'quvchi o'zlashtirilgan so'zning etimologiyasini o'rganish bilan bir qatorda o'zining tarixiy bilimlarini lug'atlarga bog'lash ko'nikmasini mustahkamlaydi. Mashq jarayonida guruhlarga bo'lingan o'quvchilarga 3–4 ta ning o'zlashtirilgan so'zning kelib chiqishi haqida savol beriladi:

- "Kompyuter" so'zi qayerdan kelgan? (lotincha "computare" – hisoblash)
- "Marketing" birinchi marta qachon ishlatilgan?
- "Blog" nima so'zlarning qisqartmasi, kabiva guruhlar oldindan tayyorlangan material yoki internetdan (agar ruxsat berilsa) izlanib, shu savollarga to'liq javob berishlari talab qilinadi. Bu leksik mashq natijasida o'quvchilar so'zlar ustida chuqur fikrlash va ularning etimologik hamda madaniy jihatlarini o'zbek tili bilan o'zaro bog'lash ko'nikmasini shakllantiradilar.

O'zlashtirilgan so'zlarni leksik mashqlar va lug'at ishlari orqali o'qitish o'quvchiga o'zlashtirilgan so'zlarni oson va samarali usluda o'rgatish, interaktiv,zamonaviy dars muhitini yaratish hamda o'zlashtirilgan so'zlarni to'g'ri foydalana olishni mustahkamlash uchun juda ham qo'l keladi, biroq bu jarayonda ma'noviy, talaffuz doir va didaktik muvozanatga e'tibor qaratilmasa, bu o'zlashtirilgan so'zlarning noto'g'ri o'zlashtirishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi har bir mashqni maqsadli, tushunarli va madaniy kontekstdan kelib chiqib tashkil qilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda o'zlashtirilgan so'zlarni maktab va universitet ta'lim tizimida o'rgatishning metodik asoslari va olingen natijalar shuni ko'rsatdiki, ularni o'rgatish jarayoni ta'lim bosqichlariga qarab turlicha yondashuvlarni talab etadi: maktabda bu jarayon ko'proq kontekstual va interaktiv metodlarga asoslangan bo'lsa, universitetda tahliliy, ilmiy va tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuvlar ustuvor



hisoblanadi. Maktab o‘quvchilari bilan olib boriladigan o‘qitish jarayonida ijodiy yondashuv, o‘yinli mashqlar, kontekst asosida ishslash orqali ularda qiziqish va eslab qolish samaradorligi ortadi. Universitetda esa o‘zlashtirilgan so‘zlarning kelib chiqishi, semantik o‘zgarishlari va funksional imkoniyatlari chuqur tahlil qilinib, shu tariqa, har bir bosqich o‘zining psixologik-pedagogik xususiyatlariga mos metodikadan foydalangan holda tashkil etiladi. Eng muhimmi bu o‘zlashtirilgan so‘zлarni o‘qitish maktab va universitet bosqichlarida izchil va tizimli integratsiyalashgan holda olib borilishi va o‘quvchilarining til kompetensiyasi, madaniy ong va tahliliy fikrlash qobiliyatlari barqaror shakllantirishdadir. Shu orqali ularning umumiy lug‘at boyli va til madaniyatini yuksaltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

4. O‘zb.I.L.”E”.26-bet
5. O‘zb.I.L.”F”.366-bet
6. O‘zb.I.L.”P”.311-bet
7. O‘zb.I.L.”S”.483-bet
8. O‘zb.I.L.”T”.646-bet
9. Shavkat Rahmatullayev, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, II bob, “Universitet” nashri, 2009, 124-125-betlar
10. Shavkat Rahmatullayev, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, II bob, “Universitet” nashri, 2009, 280-bet
11. Shavkat Rahmatullayev, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, II bob, “Universitet” nashri, 2009, 422-bet
12. Shavkat Rahmatullayev, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, III bob, “Universitet” nashri, 2009, 200-bet
13. Islomova Zilola Komiljon qizi. (2024). “O‘zbek tiliga o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlar va ularning tarixi”. PEDAGOGS, 72(2), 161–168.
14. Nosirova Zahroxon Latibjon qizi. “O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarning roli va ahamiyati”. ADU magistranti.
15. 1.<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilshunosligida-o-zlashma-so-zlarning-roli-va-ahamiyati>



16. <https://cyberleninka.ru/article/n/tilshunoslikda-o-zlashmalar-tadqiqi-ingliz-tilida-arabiy-o-zlashmalar-tadqiqi-masalasi>
17. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Internet_madaniyati
18. <https://ru.wikipedia.org/wiki/3D%D0%BF%D1%80%D0%B8%D0%BD%D1%82%D0%B5%D1%80>
19. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D1%80%D0%B8%D0%BF%D1%82%D0%BE%D0%B2%D0%BB%D1%8E%D1%82%D0%B0>
20. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>